

YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATI - DAVLAT SIYOSATINING MUHIM QISMI SIFATIDA

Shodiyev Ma'rufjon Mirsalimovich

Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi. Tel: 99-755-88-66 O'zbekiston, Navoiy vil. Navoiy shahri

E-mail: m.shodiyev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotini rivojlantirishda ma'naviy sog'lom va jismonan baquvvat avlodni voyaga yetkazish haqida so'z boradi. Shuningdek, milliy urf-odatlar, yoshlar tarbiyasi, globallashuv davrida texnika va texnologiyalarning kun sayin takomillashuvi natijasida yoshlar orasida jinoyatlar ortib borayotganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, globallashuv, jamiyat, ma'naviyat, migratsiya, "Ommaviy madaniyat", Internet tarmoqlari, bandlik (ishsizlik).

Mamlakatimizda keyingi yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyotini rivojlantirishda ma'naviy sog'lom va jismonan baquvvat avlodni voyaga yetkazish hamda ularda milliy urf-odatlarimizni shakllantirishga va uni takomillashtirishga katta ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aholining sezilarli qismini yoshlar tashkil etadi, shu bois yoshlar jinoyatchiligi masalasi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ham bu masalani chuqur va xar tomonlama o'rganish bugungi kunni asosiy talablaridan. "...Hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda". Respublikada bu sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlar asnosida butun xalqimizni hususan, yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy profilaktika faoliyatini rivojlantirish zarur.

Natijada mafkuraviy profilaktika ma'naviy targ'ibot sistemasini ham muttasil taraqqiy ettirishni dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan muhim masala bo'lib qolmoqda.

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan yoshlar masalalari bo'yicha keng qamrovli siyosat va "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar yosh avlodni jinoyatchilikdan asrash, ularning huquqiy ongini oshirish va bandligini ta'minlashga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari o'z nutqlarida yosh avlod tarbiyasi, yoshlar kelajagi haqida: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" – degan o'rinli fikrlarni bildirgan edi.





O'zbekiston yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi kabi institutlar yoshlar bilan bevosita ishlash, ularni foydali mehnat va o'qishga jalb etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga hissa qo'shmoqda.

Shuning bilan bir qatorda, bugungi kunda Prezidentimiz, hurmatli Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan Yangi O'zbekistonni barpo etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning aksariyati Yangi O'zbekistonning bo'lajak quruvchilari – kelajagimiz bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash mavzusiga bevosita aloqador. Oxirgi yillarda Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga doir ko'plab qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilindi.

Olib borilayotgan islohotlarning hamda qonunchilik hujjatlarining natijasi o'laroq, bugun O'zbekiston yoshlari jahon arenalarida sport, ilm-fan, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalarda yuqori shohsupalarga ko'tarilib, davlatimiz sha'nini yuksaltirmoqda. Buyuk ajdodlari Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud va boshqa ko'plab daholarning munosib vorislari ekanliklarini isbotlamoqdalar.

Ammo, bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv jarayonlari, texnika va texnologiyalarning kun sayin takomillashuvi, migratsiya hodisasining chegara bilmas harakatlanishi o'zining ijobiy jihatlari bilan birga, salbiy tomonlarini ham namoyon etmoqda. “Ommaviy madaniyat”, transmilliy jinoyatchilik, Internet tarmoqlarida tarqatilayotgan turli xil mentalitetimizga xos bo'lmagan namoyish va chaqiriqlar yoshlar orasida jinoyatchilikning ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, barchamizni birdek ogohlikka chaqiradi va keskin choralar ko'rishni taqozo etadi.

Har bir jamiyatda yoshlar bilan bog'liq 3 ta asosiy muammo: bandlik (ishsizlik), kasbiy ta'lim olish va jinoyatshilik muhim ahamiyat kasb yetib, qolgan barsha masalalar aynan shu muammolar bilan shambarshas bog'liqdir.

Shuni aniq anglab yetish kerakki, yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar — bu faqat ijtimoiy xavfli qilmish emas, balki ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy va psixologik muammolarning oqibatidir. Bu muammolarga nisbatan beparvo va loqayd munosabatda bo'lish, ularni o'z vaqtida oldini olmaslik — jamiyatda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

yoshlar jinoyatchiligiga sabab bo'layotgan omillar kompleks yondashuvni talab etadi: iqtisodiy imkoniyatlarning yetarli emasligi, ta'lim tizimidan uzilish, oilaviy muhitdagi muammolar, axborot makonidagi salbiy ta'sirlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Shunday ekan, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ham idoralararo hamkorlik asosida olib borilishi shart. Masalan, ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari, mahalla va yoshlar tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni institutsionallashtirish profilaktikaning uzluksizligini ta'minlaydi.





Xulosa qilib aytganda, yoshlar jinoyatchiligini oldini olishdagi muammolar — bu faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning, ayniqsa ta’lim, madaniyat, oila va OAV tizimlarining ham mas’uliyatidir. Mahalla va jamoatchilikni faol jalb qilgan holda, huquqiy ongni shakllantiruvchi zamonaviy, interaktiv usullar asosida kompleks yondashuv talab etiladi.

Yoshlar jinoyatchiligi jamiyatning barcha qatlamlariga daxldor muammodir. Uni oldini olish uchun faqat jazo bilan emas, keng qamrovli profilaktik ishlar, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash orqali ta’sir ko’rsatish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi, 2024 yil. <https://president.uz/uz/lists/view/7361>
2. Taraqqiyot strategiyasi markazi O‘zbekiston – yoshlar mamlakati <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
3. Birlashgan millatlar tashkilotining “Yoshlar 2030” strategiyasi;
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘isida”gi qonunning 3 moddasi <http://lex.uz/docs/3026246>
5. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me’yoriy hujjatlar (I qism). – T: “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y

